

**TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ISTIQBOLLARI.**

Xudayberganova Muhayyo Sabirovna

*Xorazm viloyati Urganch shahar 1-son kasb hunar maktabining maxsus fan o'qituvchisi
mailto:xudayberganovamuxayyo8@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning axborot kommunikatsiya texnologiyalarini uzatishda o'qituvchilar va talabalarning o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun faolligini oshirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari ta'lim resurslari klassifikatsiyasi va ularning sifatini aniqlovchi umumiy va maxsus didaktik talablar tizimi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается повышение активности инновационных технологий в развитии современной системы образования с целью обеспечения взаимодействия педагогов и учащихся при передаче информационно-коммуникационных технологий.*

Ключевые слова и фразы: *Возможности применения информационно-коммуникационных технологий инновационных технологий в системе образования классификация образовательных ресурсов и система общих и специальных дидактических требований, определяющих их качество.*

Bugungi kunda barcha sohalaridagi kabi ta'lim tizimida ham inovvatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Inovvatsion yondashuvlar ta'lim tiziminig rivojlanishi uchun juda muhim sanaladi. Chunki bugungi tobora globallashib borayotgan bir davirda inovvatsion tizimdan foydalanmaslikni iloji yo'q, agarda ta'lim tizimida bugungi zamonaviy usullardan foydalanmaslik o'z-o'zidan ta'lim sifatining yuksalishiga imkoniyat bermasligi mumkin.

Ushbu inovvatsion tizimda ta'lim texnologiyalari ochiq ta'lim va masofoaviy ta'lim tizimlarida axborotni uzatishda o'qituvchilar va talabalarning o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun faol foydalanilmoqda. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat innovatsion texnologiyalariga oid ko'nikmalarini egallashi, balki kasbiy faoliyatida ham mutaxassis bo'lishi kerak.

Innovatsion texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi orqali, electron ta'lim shakillandi va bunga asosiy sabab esa ma'lumotlarning katta oqimidir. Zamonaviy jamiyat juda tez rivojlanmoqda va bu o'zgarishlar alohida mamlakatlar darajasida ham, butun dunyoda ham sodir bo'lmoqda, Masalan normativ hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi hujjatlar; o'quv oxirida eskirishi mumkin, shuning uchun kasbiy bilimlar doimiy yangilanishga mihtoj. Talabalar kerakli ma'lumotlarni topishni, olingan ma'lumotlarni kasbiy faoliyatida qo'llash uchun ularni taxlil qilishni o'rganishlari kerak. Uzlüksiz ta'lim jarayonida demokratik tamoyillarning amal qilinishi o'quvchilarning aql-idrokiga ishonch, ularning mustaqil fikrlashiga imkon yaratish guruh va guruhdan tashqari faoliyatidagi ijodkorligi va tashabbuskorligini rag'batlantirish tarzida namoyon bo'ladi.

Ta'lim vositalari turlari; Bosma→Texnik→Real

Bosma→Matnli, Tasvirli.

Texnik→Audiovizual, yordamchi (jixozli).

Real→Modelli, Xaqiqiy.

Yuqoridagi fazilatlarining o'quvchi shaxsida namoyon bo'lishi uchun ta'lim tizimimizga insonparvarlik va demokratiya g'oyalariga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ulardan ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari ijtimoiy tarmoqlarda qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik harakatini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy shakl(figura)ga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.



Innovatsion bu - Yechim, Noqonuniy, Fikr, Ilhom, Ijodkorlik, Ko'rish usullarini shakillantradi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'qituvchi va o'quvchining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmalikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirilishi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Ta'lim texnologiyasi elementlari: Ta'lim jarayoni:

-Ta'lim beruvchi; -Ta'lim maqsadlari; -Ta'lim mazmuni; -Ta'lim oluvchi; -Ta'lim shakllari; -Ta'lim metodlari; -Ta'lim vositalarini; -Ta'lim natijalari; -Monitoring; -Baxolash.

Pedagogikada ya'ni ta'lim berish jarayonida o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar xam o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb xisoblanadi, ya'ni ular orasida xali xam aniq farqlar belgilanmagan. Pedagogik texnologiya talabalarining tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik, nazariy va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maskanlari va yangi texnologiyalarni eksperiment qilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. Shu innovatsion texnologiyalar asosida sekin asta pedagogikaning ya'ni o'qitish tizimining ham yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. Masalan ulardan biri hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi XXI asrning 90-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi.

Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi^[1]:

-shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv; -dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua; -tarbiya kontseptsiyasi; -atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash. Ko'pgina mamlakatlar o'qitishda texnologik yondashuvdan foydalanib, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatga erishdilar. Masalan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha sinov-tarjiba tarzida o'qiyotgan 50 ming bola 15 foiz an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi erishadigan natijalar qo'lga kiritilgan. Bir qator barcha mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalar o'qitishning bu tizimini qo'llash o'rtacha o'quvchiga an'anaviy o'qitishda 20-25 foiz o'quvchilar erishadigan natijadan yuqoriroq natijaga erishish imkonini berishini ko'rsatdi.

Pedagogik texnologiyani o'zlashtirib olgan mohir pedogoglar uchun mazkur usulning an'anaviy usulga ko'ra samaraliroq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa maktab pedogoglari, kasb-hunar va oliy ta'lim professor o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda

pedagogik texnologiyani o'zlashtirish va amalda qo'llash zarurligini bildiradi. «Kadrlarni tayyorlash milliy dasturida»^[1]. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, talabalarni o'qitishni jadallashtirish ko'zda tutilgan. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ishtiyoq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxujayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.:TDPU, 2003.
2. Ishmuxamedov R. J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.
3. Yunusovna S. Z. The Role of the Conversational Implicative in Linguopragmatics on the Basis of Formal and Informal Letters. TDO"TAU, 2022
4. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogik maxorat. Toshkent. TDIU, 2007 yil
5. [www. Inter- pedagogika. ru.](http://www.inter-pedagogika.ru)
6. [https://arxiv.uz.referatlar.](https://arxiv.uz/referatlar)
7. <https://az>
8. <https://staff.tiame.uz>